

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA KUCHLI TA'SIR QILUVCHI DORI VOSITALARI ISTE'MOLINING OLDINI OLISH: MILLIY QONUNCHILIK VA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.

Madaminov Murod Oybek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Rahimxo'jayev Rustam Nishonxojayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyatchilikka qarshi kurashish fakulteti

Tezkor qidiruv faoliyati kafedrası boshlig'i.

Annotatsiya: *Giyohvadlik yoki unga tenglashtirilgan moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilish – inson ijtimoiy muhitiga juda yomon tasir qiladigan va sog'ligiga jiddiy xavf tug'diruvchi xulq-atvor hisoblanadi. Bugungi kunimizda kuchli tasir qiluvchi dori vositalari iste'moli nafaqat yoshi kata insonlarning, balkida voyaga yetmagan yani o'n sakkiz yoshdan kichiklarga ham xavf solmoqda. Eng yomon tarafi yoshlar giyohvandlikga o'z ixtiyorlari bilan emas, tashqi muhit – maktabdagi do'stlar, ko'chadagi tanishlar va jamoadagi ta'sirchanlik tufayli berilib ketmoqdalar. Yurtimizda voyaga yetmaganlarni giyohvantlik moddalarini iste'mol qilishini oldini olish uchun ko'plab qonun hujjatlari ishlab chiqarilgan. Ayniqsa so'ngi yillarda qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, huquqni muhofaza qilish organlarining samarali harakatlari hamda xalqaro tajribalar orqali giyohvandlik havfi kamayib bormoqda. So'zimiz davomida voyaga yetmaganlarning giyohvadlik vositalari va kuchli tasir qiluvchi dori vositalarini iste'mol qilishini oldini olishga qaratilgan milliy qonunchilikimiz va xalqaro tajribalar haqida batafsil ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmaganlar, giyohvandlik, kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalar, profilaktika, milliy qonunchilik, xalqaro tajriba.*

Annotation: *Drug addiction, or the regular, obvious consumption of food equivalent to it, is a behavior that has a very negative impact on a person's social environment and causes serious harm to their health. today, the use of powerful drugs poses a threat not only to older people, but also to minors, that is, those under the age of eighteen. the worst part is that young people are becoming addicted to drugs not by their own will, but because of the external environment - friends at school, acquaintances on the street, and influence in the community. In our country, many laws have been enacted to prevent minors from using drugs. Especially in recent years, the risk of drug addiction is decreasing due to the legislative acts adopted, the effective actions of law enforcement agencies, and international experiences. During our speech, we will provide detailed information about our national legislation and international experiences aimed at preventing the use of narcotic drugs and strong drugs by minors.*

Keywords: *minors, drug addiction, potent substances, prevention, national legislation, international experience*

Аннотация: *Наркотическая зависимость или регулярное употребление подобных веществ — это поведение, оказывающее крайне негативное воздействие на социальное окружение человека и представляющее серьезную угрозу для его здоровья. Сегодня употребление сильнодействующих наркотиков представляет угрозу не только для пожилых людей, но и для несовершеннолетних, то есть для тех, кому меньше восемнадцати лет. Хуже всего то, что молодые люди становятся наркозависимыми не по своей воле, а из-за внешнего окружения — друзей в школе, знакомых на улице и влияния в обществе. В нашей стране разработано множество законов, направленных на предотвращение употребления наркотических средств несовершеннолетними. Особенно в последние годы риск наркотической зависимости снижается благодаря принятым законодательным актам, эффективным действиям правоохранительных органов и международному опыту. В нашем выступлении мы предоставим подробную информацию о нашем национальном законодательстве и международном опыте, направленных на предотвращение употребления наркотических средств и сильнодействующих наркотиков несовершеннолетними.*

Ключевые слова: *несовершеннолетние, наркозависимость, сильнодействующие вещества, профилактика, национальное законодательство, международный опыт.*

1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 33-moddasiga muvofiq konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlar bolalarini tegishli xalqaro sharnomalarda belgilanganidek, giyohvandlik va psixotrop moddalarini noqonuniy iste'mol qilishdan himoya qilish uchun barcha zarur choralarni ko'rishi kerak⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi ham bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ishtirokchisi hisoblanadi va ayni paytda ushbu konvensiya milliy qonunchiligimizning bir qismi hisoblanadi. Konvensiyaga muvofiq jumladan, qonunchilik, ma'muriy va ijtimoiy va shuningdek ta'lim sohasidagi choralarni hamda bunday moddalar g'ayriqonuniy ravishda chiqarishda va ularni sotishda bolalardan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choqalarini ko'rishi kerak.

“Qush uyida ko'rganini qiladi” degan o'zbek maqoli haqiqatdir. Ushbu masalada ota-onalarning yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning ro'li beqiyos hisoblanadi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasining Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonunning 7-moddasiga muvofiq ota-onalar yoki ota-onalarni o'rnini bosuvchi shaxslarga, voyaga yetmagan bolalarining nazoratsiz qolmasligi va jamoat-axloq qoidalariga rioya qilishini, spirtli ichimliklar, kuchli tasir qiluvchi dori vositalari yokida giyohvand moddalarni iste'mol qilishishig, chekishiga yo'l qo'ymaslik, ularni vaqtini mazmuni o'tkazish bo'yicha bir qator majburiyatlar yuklatilgan.⁵⁵

Albatta ushbu xavfni ota-onalarning say-harakatlari orqali yo'q qilish ilojisiz. Shu sababli ham sog'liqni saqlash muassasalariga ham voyaga yetmaganlarning giyohvandlik vositalarini iste'mol qilmasligini taminlash maqsadida ba'zi vakolat va mavjburiyatlar yuklatilgan.

⁵⁴ <https://lex.uz/docs/-2595913>

⁵⁵ <https://lex.uz/docs/-1685726>

Jumladan; voyaga yetmaganlar o'rtasida alkogolizm, chekish, giyohvandlik va zaharvandlik hamda ularning xulq-atvoridagi shu bilan bog'liq nuqsonlarning profilaktikasi bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta'minlaydi; spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, hisobga olish, tekshirish va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilishni tashkil etadi; Bundan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi barcha organlarda shaxslarning giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishini oldini olish bo'yicha o'z bajburiyat va vakolatlari mavjud. Bunga yaqqol misol sifatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hodimlari maktablarga, universitetlarga tashrif buyurib, yoshlarni giyohvandlikka qarshi kurashishga, yoshlarni bu yo'ldan qaytarishga undash bo'yicha chora tadbirlar qilishida ko'rishimiz mumkin. Davlat xizmatchilarining mahallalarda uyma-uy yurib aholining ayniqsa yosh qatlamning muammolarini o'rganish, ish bilan taminlash hamda ularni tarbiyaga chaqirish bo'yicha keng harakatlar amalga oshirilmoqda. Albatta bu harakatlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Bugunki kunida yurtimizda voyaga yetmaganlar orasida kuchli tasir qiluvchi dori vositalari yoki giyohvandlik vositalari iste'moli jiddiy ravishda kamayotgan bo'lsa, davlatimiz tomonidan keng va tizimli ravishda olib borilayotgan siyosat natijasidir.

Voyaga yetmaganlar giyohvandlik vositalari yokida kuchli tasir qiluvchi dorilarni hamishda ham o'zlarining hohishiga ko'ra iste'mol qilishavermaydi. Ba'zi insonlar dorixonlardan yokida kochadan tarkibidan qanday moddalar borigini bilmasdan yokida dorining qanday tasie qilishini bilmagan holatda iste'mol qilishlari va bu ularning sog'ligiga yomon tasir qilishi hatto qayta-qayta iste'mol qilish natijasida dorilarga o'rganib qoqlishi ham mumkin. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasi "O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasi to'g'risida" qaror qabul qilgan. Ushbu qarorning asosiy maqsadi; kuchli tasir qiluvchi moddalar muomilasini tartibga solish sohasida horijiy davlatlar tajribasini o'rganish, kuchli tasir qiluvchi moddalar ro'yxatini o'zgartirish va qo'shimchalr kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat⁵⁶ Qarorda aatarkibida kuchli tasir qiluvchi barcha dorilar va psixotrop moddalar keltirilgan va ularning muomalada bo'lishiga qat'iy cheklov o'rnatilgan. Bundan tashqari bu ro'yxat muntazam ravishda o'zgarib yangilanib boradi, chunki kuchli tasir qiluvchi dori vositalarining turlari ko'payib bormoqda va tabiiyki jamiyatni bu haqda ogohlantirish kerak bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarning kuchli tasir qiluvchi moddalarni iste'mol qilishiga qarshi kurashishda muhim ro'l o'ynaydigan milliy qonunchiligimizdan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025—yil 23-noyabrdagi qabul qilingan "Aholi salomatliginii va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni hisoblanadi. Ushbu farmonnin asosiy maqsadlaridan biri (b) voyaga yetmaganlar va yoshlarimiz kelajagini giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalardan har tomonlama asrash — barcha darajadagi davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarining dolzarb vazifasi ekanini alohida qayd etish hamda ularning bu boradagi

⁵⁶ <https://lex.uz/mact/-4532164>

mas'uliyatini tubdan oshirish, aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida giyohvandlik hamda zaharvandlikni tashxislash, davolash va tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilash hisoblanadi.⁵⁷ Yuqorida keltirilgan normalardan anglashimi mumkinki, yoshlar siyosati yildan-yilga dolzarbalshmoqda. Normadagi "barcha organalarning ustuvor vazifasi" degan joyi ayniqsa ma'noli va o'rinlidir. Yoshlarni yomon narsalardan saqlash, ularning barkamol kelajagini taminlash, sog'lom muhitda ulg'ayishi uchun giyohvandlikni oldini olish vazifasi barcha davlat organlarining ustuvor vazifasi qilib belgilanmoqda. Lekin barcha aholining ham giyohvand vositalardan zararlanishini oldini olib bo'lmaydi. Shu sababli ham ushbu farmonda zararlanganlarni davolash ularni qayta tarbiyalash va yana jamiyatga qaytarish tartibini ham tubdan islohot qilish haqida aytilgan. Albatta ular ham bemor hisoblanadi, ularni jamiyatga sog'lom holatda qaytarish uchun ilg'or davlatlarning tajribalarini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Eng ahamiyatli jihatlaridan biri, voyaga yetmaganlarni kuchli tasir qiluvchi dorilarni sotishga, iste'mol qilishga undash jinoyatlari og'ir jazolanishi ham farmoda belgilab o'tilgan. Bu ko'rinshidan oddiy jumlagi o'xshashi mumkin, lekin bu orqali jamiyatimizda yoshlarga bo'lgan hurmat, e'tibor, ularning millat uchun qanchalik kerak ekanligi, ularga nisbatan qiligan jinoyat og'ir jazolanishini ko'rish mumkin. Ushbu muammoni hal qilishda, jamiyatimizda yo'q qilishda xalqaro tajriba ham muhim ro'l o'ynaydi. Bu muammo butun dunyoda yoshlarni dushmaniga aylanmoqda va tabiiyki ilg'or davlatlar yaxshi g'oyalar va samarali harakatlar bilan bu muammoni hal qilishmoqda. Biz ham chet el tajribasini jamiyatimizga integratsiya qilishimiz kerak. Muvoffaqiyatli modellardan biri hisoblangan Islandiya modeli o'zining samaraligi bilan ko'pchilikni hayratga solgan. 1990-yillarda Islandiya davlatida voyaga yetmaganlar orasida alkagol va narkotik moddalar iste'mol qilish darajasi Yevropada eng yuqorisi edi. Keyingi 20-yil davomida davlatning olib borgan pragmatik siyosati sabab bu ko'rsatgich keskin pasaytirildi. Asosiy strategiyalar; Har yili o'quvchilar o'rtasida anonim anketa o'tkazilib, xavf va himoya omillari monitoring qilingan. Ota-onalar nazoratni kuchaytirish orqali bolalarining nazoratini qo'llariga olishgan. Voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun, sport, san'at sohasi rivojlantirilgan. Islandiyaliklar qo'llagan uslublardan yana biri "Love without Hesitation" shiori edi. Ushbu shiorning maqsadi voyaga yetganlarni bosimsiz va ularning ruhiy holatini yomonlashtirmasdan davolash edi. Ushbu model "Planet Youth" nomini olgan va hozirda dunyoda 30 dan ortiq davlatlarda qo'llanilib kelinmoqda.⁵⁸

AQSH modeli: Voyaga yetmaganlarni giyohvandlik va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar iste'molidan himoya qilish siyosati va strategiyalari. AQSh dunyodagi eng ilg'or va ilmiy dalillarga asoslangan (evidence-based) giyohvandlik profilaktika tizimiga ega. Asosiy mas'ul tashkilot — Milliy Narkotiklar Instituti (NIDA) bo'lib, u ko'p yillik tadqiqotlar asosida strategiyalarni ishlab chiqadi. AQSh modeli faqat taqiqlash yoki qo'rqitishga emas, balki xavf

⁵⁷ <https://www.lex.uz/uz/docs/-7818774>

⁵⁸ <https://planetyouth.org/the-icelandic-prevention-model/>

omillarini kamaytirish va himoya omillarini kuchaytirishga asoslanadi.⁵⁹ Ushbu modelning o'ziga hosligi sifatida Himoya omilini kuchaytirish va xavf omillarini kamaytirish yani oila bilan munosabatlarni yaxshilash, maktabdagi muvoffaqayitalar va albatta voyaga yetmaganlarning o'zini hurmat qilishi va ichki ishonchi, barcha turdagi moddalarni ro'yxatini shakllantirish va aholini ogohlantirish, maktablarda o'quvchilarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish kabilarni aytishimiz mumkin.⁶⁰

Umuman olib aytganda ushbu xavfni to'liq yo'q qilish mushkul masala. Davlat qanchalik kurashmasin jamiyatning o'zi ham guyohvandlik havfidan himoyalanmasa zarar ko'rishi kundek ravshan. Shuning uchun ham bu muammoni hal qilishda davlat organlari va jamiyat birgalikda ishlashi, qo'lni qo'lga bergan holatda xavfni yengishlari kerak bo'ladi. Yildan-yilga takomillashib borayotgan qonunchiligimiz, chet-el tajribasini integratsiya qilinishi va insonlarning oqilona harakati yashlarni to'g'ri o'sishida, noto'g'ri yo'llarga kirmasligiga barkamol kelajak sari dadil qadamlar tashlashiga sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – *yangi tahrir* - 30.04.2023
2. BMT "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi – 20.11.1989 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni (813-I-son) – 19.08.1999 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni – 29.09.2010 y.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (271, 273, 274, 251¹-moddalar) – 22.09.1994 y
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralari kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-4438-son Qarori – 06.09.2019 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-207-son Farmoni – 03.11.2025 y
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida"gi 818-son Qarori – 27.09.2019 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 632-son Qarori – 04.10.2024 y.

Elektron manbalar:

10. <https://lex.uz/>
11. <https://inlibrary.uz/index.php/zdift/article/view/66166>

⁵⁹ <https://nida.nih.gov/research-topics/prevention>

⁶⁰ <https://www.cdc.gov/media/releases/2025/2025-cdc-launches-new-campaign-to-address-youth-substance-use-and-mental-health.html>

12. <https://www.in-academy.uz/index.php/ZDIFT/article/view/22178>
13. <https://gov.uz/oz/muzrabot/news/view/125932>
14. <https://cyberleninka.ru/article/n/voyaga-yetmaganlarga-nisbatan-sodir-etiladigan-tazyiq-va-zoravonliklarni-oldini-olish-borasida-tashkilotlar-bilan-hamkorlikni>
15. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda yangi/kuchli tasir qiluvchi moddalar ruyhatiga nimalar kiradi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda-yangi-kuchli-tasir-qiluvchi-moddalar-ruyhatiga-nimalar-kiradi)
16. <https://planetyouth.org/the-icelandic-prevention-model/>
17. <https://osot.ubc.ca/2025/09/23/icelandic-prevention-model/>
18. https://nida.nih.gov/sites/default/files/redbook_0.pdf
19. <https://nida.nih.gov/research-topics/prevention>